



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## №4



# 2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, aprel.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI .....	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI .....	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI .....	64
Namazov Gafur Shokulovich	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI .....	69
Beglayev Uchqun Xurramovich	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOYIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI .....	75
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI .....	81
Artikova R.A.	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILİYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
Ibragimov G'anjon G'ayratovich	
STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN .....	93
Axliddin Aroplitdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	99
Айматова Фарида Хуразовна	
KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	107
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	
DEHQON XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA KREDITLAR MIQDORINI DIFFERENSIYALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR .....	113
Xakimov Zafar Ibragimovich	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI .....	118
Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	124
Muhammadieva Nodira	
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUDUDIY RIVOJLANISHNI STATISTIK HISOBLASH METODOLOGIYASINI QAYTA BAHOLASH MEZONLARI (SCOPUS VA WEB OF SCIENCE DA INDEKSLANGAN ILMIY NASHRLAR TAHLILI ASOSIDA).....	131
Santjar Abdumurodovich Sattorov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY-IQTISODIY OMILLARI VA ISTIQBOLLARI .....	139
Allamuratova Perida Maxsetbaevna	



XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI .....	144
<i>Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna, Yarmetova Nargiza Shiximbayevna</i>	
MAHALLIY VA XALQARO TURIZM BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI, TAMOIYILLARI VA MEXANIZMLARI .....	152
<i>Alikulov Samar Abdurashidovich</i>	
TRANSPORT XIZMATLARINING SOHALAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TASNIFI .....	159
<i>Karimova Shaxnoza Uktamovna</i>	
RAQAMLI TO'LOVLAR VA O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGI .....	165
<i>Ruziyeva Barno Yadgarovna</i>	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA TO'LOV XIZMATLARINI RAQAMLI MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....	168
<i>Maxmudov Boburbek Axmedjan o'g'li</i>	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ .....	172
<i>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</i>	
MAJBURIY IJRO HARAkatLARINI RAQAMLASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	177
<i>Matmuratova Nasiba Azatovna</i>	
OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLAR TAHLILI .....	181
<i>Pulatov Abdulla</i>	
INVESTITSION LOYIHALARNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA ULARNI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	185
<i>Nazarov Aziz Avazovich</i>	
ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ .....	190
<i>Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна</i>	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING MAQSADLI PROGNOZ PARAMETRLARI .....	197
<i>Omonova Nafisa Qahramon qizi</i>	
MANAGEMENT STRATEGIES IN WOMEN'S BUSINESS: GENDER-SPECIFIC APPROACHES, INNOVATIVE MODELS, AND DIGITAL TRANSFORMATION .....	200
<i>Ahrorova Asila</i>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	207
<i>Hakimova Oydina Abdulhamidovna, Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna</i>	
INSON TARAQQIYOTI INDEKSI VA UNI ANIQLAB BERUVCHI KO'RSATKICHLARNING KORRELYATSION-REGRESSION TAHLILI .....	212
<i>Tursunov Rasul Tairovich</i>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ .....	218
<i>Эргашева Феруза Насруллаевна</i>	
ENHANCING THE METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM VILLAGES IN UZBEKISTAN .....	226
<i>Khudaynazarova Dilorom Khayrullaevna</i>	
THE ROLE OF INNOVATION IN ENSURING COMPETITIVENESS IN THE GREEN ECONOMY .....	231
<i>Musadjanova Nargiza Abdvoxid qizi</i>	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINING O'RNI VA SAMARADORLIGI .....	238
<i>Saodat Sadriddinova</i>	
OLIY TA'LIMDA CHET TILLARNI O'QITISH UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	243
<i>Saida Xabibullayeva</i>	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИСКАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В СФЕРЕ ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	247
<b>Исматиллаева Роза Тухтамуратовна, Тураева Сурия Тельмановна</b>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASHTERINING QIYMAT YARATISH UZLUKSIZ ZANJIRIDA AGROSERVIS XIZMATLARI KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	252
<b>Kudratova Iroda Turdibayevna</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTIDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI .....	257
<b>Nurullayeva Raushan Koptleuovna, Nurimbetov Timur Uzaqbergenovich</b>	
FIZIKA UMUMIY KURSIGA NANOTEKNOLOGIYA TUSHUNCHALARINI KIRITISHNING METODIK ASPEKTLARI VA KOMPONENTLARI .....	260
<b>Sottarov Abduvali Umirqulovich</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK HISOBOTLAR VA ULARNING TUTGAN O'RNI.....	266
<b>Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
<b>Rahmanova Sitara Bahodir qizi</b>	
SANOAT KORXONALARIDA OPERATSION MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	277
<b>Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich</b>	
IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH.....	283
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi</b>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION INVESTITSIYALASH VA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI JORIY ETISH (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	286
<b>Maxamadiyev Turg'unboy Jumabayevich</b>	
O'ZBEKISTONDA XO'JALIK JAMIYATLARI KUZATUV KENGASHLARI FAOLIYATINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH.....	292
<b>Valijonov Akmaljon</b>	
IQTISODIYOTNING AGRAR SEKTORIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH: NAZARIY VA USLUBIY YONDASHUVLAR.....	296
<b>Matrasulov Baxodir Erbutayevich</b>	



UDK 338.431.631.1

# IQTISODIYOTNING AGRAR SEKTORIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH: NAZARIY VA USLUBIY YONDASHUVLAR

**Matrasulov Baxodir Erbutayevich**

Guliston davlat universiteti,  
“Buxgalteriya hisobi va moliya” kafedrasida katta o‘qituvchisi  
ORCID 0009-0006-5517-3824,  
e-mail [bahodirm@mail.ru](mailto:bahodirm@mail.ru),  
[businessangel07@gmail.com](mailto:businessangel07@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada iqtisodiyotning agrar sektorida innovatsion faoliyatni boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari tahlil qilinadi. Qishloq xo‘jaligining ko‘p funksiyalilik xususiyati, innovatsion faoliyatning mazmuni va uning boshqaruv obyekti sifatidagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi ekzogen va endogen omillar tizimlashtirilgan hamda agrar sektorda innovatsion boshqaruv samaradorligini baholash yondashuvlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, agrar sektorni ijtimoiy-iqtisodiy-biotexnologik tizim sifatida kompleks yondashuv asosida boshqarish zarurligi asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** agrar sektor, innovatsion faoliyat, boshqaruv, innovatsion salohiyat, raqobatbardoshlik, samaradorlik, qishloq xo‘jaligi, tizimli yondashuv.

**Abstract.** This article analyzes the theoretical and methodological foundations of managing innovative activity in the agrarian sector of the economy. The multifunctional nature of agriculture, the content of innovative activity and its significance as an object of management are revealed. Also, exogenous and endogenous factors that develop innovative activity are systematized, and approaches to assessing the effectiveness of innovative management in the agrarian sector are developed. According to the results of the study, the need to manage the agrarian sector as a socio-economic-biotechnological system based on an integrated approach is justified.

**Key words:** agricultural sector, innovative activity, management, innovative potential, competitiveness, efficiency, agriculture, systematic approach.

**Аннотация.** В статье анализируются теоретические и методологические основы управления инновационной деятельностью в аграрном секторе экономики. Раскрываются многофункциональный характер сельского хозяйства, содержание инновационной деятельности и ее значение как объекта управления. Также систематизируются экзогенные и эндогенные факторы, развивающие инновационную деятельность, и разрабатываются подходы к оценке эффективности управления инновациями в аграрном секторе. По результатам исследования обосновывается необходимость управления аграрным сектором как социально-экономико-биотехнологической системой на основе комплексного подхода.

**Ключевые слова:** аграрный сектор, инновационная деятельность, управление, инновационный потенциал, конкурентоспособность, эффективность, сельское хозяйство, системный подход.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda agrar sektor milliy iqtisodiy tizimning strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Uning barqaror rivojlanishi oziq-ovqat xavfsizligi, aholi bandligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o‘rin tutadi. Global iqtisodiyotning chuqur integratsiyalashuvi va raqobatning kuchayishi agrar ishlab chiqarishda innovatsion faoliyatni keng joriy etishni talab qilmoqda.

Raqobatbardoshlikning zamonaviy talqini faqat iqtisodiy resurslar bilan emas, balki ilmiy-texnologik salohiyat bilan belgilanadi. Shu bois agrar sektorda innovatsion faoliyatni samarali boshqarish masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyan bo‘lmoqda.



Mazkur maqolaning maqsadi – agrar sektorda innovatsion faoliyatni boshqarishning nazariy asoslarini tizimlashtirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Har qanday davlat iqtisodiyotida va jamiyat hayot faoliyatida agrar sektor muhim ahamiyatga ega. Bu qishloq xo'jaligining nafaqat oziq-ovqat yetkazib beruvchisi sifatida, balki boshqa qator jamiyat ne'matlari va xizmatlarining yetkazib beruvchisi sifatida ko'p funksional tabiatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda "qishloq xo'jaligining ko'p funksionaliligi" [1] tushunchasi "qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish"[2] konsepsiyasi bilan yaxlit holatda tushuniladi.

"Ko'p funksionalilik" kategoriyasi ushbu tadqiqot ishida alohida o'rinni egallaydi. Keng ma'noda bu tushuncha nimaningdir ko'p funksiyaga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq, faqat funksiyalarning ko'pligiga to'xtaladigan bo'lsak, tadqiq qilinayotgan kategoriyaning tizimli tabiati nazardan chetda qoladi.

Bizning nazarimizda, "qishloq xo'jaligining ko'p funksionalilik" tushunchasi "tizimlilik" tushunchasi bilan organik bog'liq bo'lib, qishloq xo'jaligi funksiyalari ularning turli maqsadli va rolli jihatlarini anglatadi. Ularni bir-biridan ayri holda o'rganish tadqiqotning yaxlitligi va natijalarning haqqoniyligiga putur yetkazadi.

Ba'zi olimlar qishloq xo'jaligi funksiyalarining qat'iy aniqlangan miqdorlari mavjudligini asoslaydilar. Masalan, rossiyalik iqtisodchi olim V. Savkin "qishloq xo'jaligining besh funksiyasini ajratib ko'rsatadi (iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, innovatsion va axborot)"[3].

Boshqa olimlar ulardan asosiy hisoblangan bir nechtasini ko'rsatishadi. Masalan, B. Matrasulov "qishloq xo'jaligining quyidagi "xalq xo'jaligi" funksiyalariga e'tibor qaratadi: ishlab chiqarish, ijtimoiy-demografik, atrof-muhit muhofazasi, rekreatsion, madaniy, masofalararo-kommunikatsion, shuningdek, hududlar ustidan ijtimoiy nazorat funksiyasi"[4].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A. Burxanov "qishloq xo'jaligining global energetik muammolarni hal etishdagi ahamiyatiga e'tibor qaratib, yuqorida ko'rsatilgan funksiyalar qatorida qayta tiklanuvchi energiya resurslari manbai ekanligiga ham e'tibor qaratadi"[5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda iqtisodiyotning agrar sektorida innovatsion faoliyatni boshqarish jarayonlarini o'rganishda kompleks, tizimli va ko'p darajali metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi agrar sektorning o'ziga xos xususiyatlari — biologik jarayonlarga bog'liqlik, mavsumiylik, hududiy differentsiallashuv va resurs cheklanganligi kabi omillarni hisobga olgan holda shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Agrar ishlab chiqarishning eng asosiy maqsadi – ishlab chiqarishda foydalaniladigan yer, mehnat, kapital va boshqa resurslar birligi hisobiga to'g'ri keladigan qishloq xo'jaligi mahsulotini ko'paytirishdir. Bu esa bevosita intensivlashtirish jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, u o'z ichiga kompleks mexanizatsiyalashtirish, yerlar melioratsiyasi, mehnatning energiya bilan qurollanganligini oshirish, ixtisoslashuv va agrosanoat integratsiyasi rivojlanishiga asoslangan ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishni oladi.


Intensivlashtirish, o'z navbatida, ish vaqtini tejash va o'sib boruvchi mehnat unumdorligi qonunlari bilan uzviy bog'liqdir. Bu qonunlar asosida yotuvchi obyektiv iqtisodiy aloqalar ilmiy-texnik taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ularsiz iqtisodiyotning agrar sektorida intensivlashtirish jarayonlarini amalga oshirishning iloji yo'q.

Ilmiy-texnik taraqqiyot tezligi ko'rsatkichlari bo'lib natijadorlik (mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish hajmlari o'sishi; mehnat xarajatlari, material sig'imi va energiya sig'imi pasayishi; sifatning yaxshilanishi va mahsulot assortimenti ko'payishi) va resurs bilan ta'minlanganlik (ishlab chiqarishning fond va energiya bilan qurollanganligini oshirish) hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib xulosa qilamizki, qishloq xo'jaligining innovatsion-texnologik funksiyasini ham hisobga olishimiz kerak. Bu funksiya resurstejovchi, namlikni tejovchi texnologiyalarni, aniq dehqonchilik texnologiyasi, agronototexnologiyalar va boshqa texnologiyalarni agrar sektorda qo'llash nafaqat tuproq unumdorligini, chorva mahsuldorligini, o'simliklar hosildorligini, sohada band bo'lganlar mehnat unumdorligini ortishiga balki agrar sektor raqobatbardoshligini ortishiga va oxir-oqibatda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan texnologiyalarning barchasi kompleks kategoriyasiga kiradi va ularning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: har bir texnologik bosqichda minimal yo'qotish darajasi; texnologiyaning uni amalga oshiruvchi mashina va uskunalari bilan, ushbu texnologiyalarga xizmat ko'rsatuvchi ijrochilar mehnatining ixtisoslashuv va sifati darajasi bilan mantiqiy mosligi. Shunday qilib, "kompleks texnologiya" konsepsiyasida

mehnatning barcha komponentlari bir xil ahamiyatga egaligi va buning hisobiga ijtimoiy ishlab chiqarishning adekvat samarasiga erishilishi tiklanadi (1-rasm).



1-rasm. Qishloq xo'jaligining ko'p funksiyalilik tavsifi

Muallif ishlanmasi.

1-rasmda keltirilgan iqtisodiyotning qishloq xo'jaligida ilmiy-texnik taraqqiyotni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi, ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- mehnatni takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyliigi (ishlab chiqarish jarayonida to'lovlar avans xarakterida; ikki mavsum orasidagi davrda ishchilarni ish bilan ta'minlash muammasi);
- qishloq xo'jaligi faoliyati keng maydonlarda olib borilishi va dehqonchilik mobil xarakterga ega ekanligi mehnatni muhofaza qilishga alohida talablar qo'yadi;
- agrar ishlab chiqarishning mavsumiy xarakterga egaligi va hudud omili texnikalardan foydalanish xususiyatlarini belgilaydi;
- qishloq xo'jaligida yaratilgan mahsulotlar boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishda ishtirok etadi (urug', ozuqa sifatida; yosh qoramollar podani kengaytirishga yo'naltiriladi), shuning uchun qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hammasi ham tovar hisoblanmaydi;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish vositalarining muhim unsurlaridan biri – bu yerdir. Boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqli o'laroq, yer inson mehnatining mahsuli emas va uning maydonini kengaytirish mumkin emas. Bundan tashqari, yerning sifati va unumdorligi har xil. Biroq, agrar sohada innovatsiyalarni qo'llash orqali qishloq xo'jaligi maydoni birligidan olingan o'rtacha hosildorlik ko'rsatkichlardan bir necha baravar ko'p mahsulot olish mumkin.

Iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi sektorining o'ziga xos xususiyatlari uning tashkil etilishi, tuzilishi va boshqaruv jarayonlariga ta'sir qiladi:

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yer va tirik organizmlardan foydalanish texnologiya, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi, texnologik jarayonlarni boshqarishda ehtiyotkorlikni, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirishda tezkorlikni oshirishni talab qiladi;


bo'linmalarning hududiy uzoqligi boshqaruv tuzilmasini tanlashga, boshqaruv funksiyalarini markazlashtirish darajasiga va butun ishlab chiqarishni tezkor boshqarishni tashkil etishga talablarning oshishiga ta'sir qiladi.



Qoida tariqasida, yirik ko'p tarmoqli xo'jaliklarda boshqaruv tuzilmasi hududiy asosga ko'ra tuziladi, ixtisoslashgan xo'jaliklarda – tarmoq yo'nalishiga asoslanadi, bu ham iqtisodiyotning agrar sektori butun boshqaruv tizimiga ta'sir qiladi;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining joylashishi va ixtisoslashuvida hudud xususiyatlarini hisobga olish mamlakatning turli hududlarida qishloq xo'jaligi va chorvachilik tizimiga o'ziga xos yondashuvni belgilaydi;

qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish davri va ish davri o'rtasidagi tafovut tarmoqlarni tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi (2-rasm).




2-rasm. Iqtisodiyotning agrar sektorida ilmiy-texnologik taraqqiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlar  
Muallif ishlanmasi.



Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, bizning fikrimizcha, iqtisodiyotning agrar sektorini murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqish va unda innovatsion faoliyatni boshqarishda tizimli kompleks yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyotning qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni boshqarishda uning tizim sifatida ishlashining asosiy tamoyillarini (yaxlitlik; ketma-ketlik; tuzilmalilik), shuningdek quyidagi xususiyatlarni hisobga olish kerak: bir tarkibli bo'lmagan unsurlar orasidagi o'zaro bog'liqlik munosabatlarining mavjudligi; tizim unsurlari rivojlanishining turli darajasi; tizim unsurlarining ma'lum darajada avtonomiyasi mavjudligi; tizim unsurlari rivojlanishining ehtimoliy tabiati; faoliyat yuritish maqsadlarining obyektiv tizimi mavjudligi (3-rasm).



3-rasm. Iqtisodiyotning agrar sektori ijtimoiy-iqtisodiy-biotexnologik tizim sifatida

Muallif ishlanmasi.

Iqtisodiyotning agrar sektoridagi innovatsion faoliyatni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini tizimlash bizga eng muhimlarini aniqlash imkonini berdi:

- sohaning biologik asosga ega ekanligi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yuqori darajadagi hududiy bo'linishi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sharoitlari bo'yicha hududlarning sezilarli farqlanishi innovatsiyalarning rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari turlarining ko'pligi va ularni yetishtirish va ishlab chiqarish texnologiyalaridagi sezilarli farq bir qator xarakterli xususiyatlariga ko'ra tasniflangan ko'plab turdagi innovatsiyalarni nazarda tutadi;
- innovatsion faoliyatning turli tashkiliy shakllari (texnologik platformalar, agrotexnologik tuzilmalar, ilmiy va ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy qo'llab-quvvatlash markazlari, axborot-konsalting xizmatlari va boshqalar).



Iqtisodiyotning agrar sektorida innovatsion faoliyatni boshqarish – bu rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va rag'batlantirishning uzluksiz o'zaro bog'liq jarayoni.

Innovatsion faoliyatning asosiy vazifasi innovatsion faoliyatning tanlangan omillari guruhlar doirasida uning istiqbolli yo'nalishlarini rejalashtirishda mumkin bo'lgan innovatsion komponentning tarkibini o'zgartirishdir.

Innovatsion faoliyat omillarining ko'rsatilgan guruhlar doirasida uning aniq yo'nalishlari ajralib turadi, ular orasida agrar ishlab chiqarish rivojlanishining turli bosqichlarida ustuvorlari aniqlanadi.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotning agrar sektorida innovatsiyalarni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni ekzogen va endogen guruhlariga ajratish zarurdir.

Ekzogen omillar guruhiga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy-iqtisodiy omillar (ilmiy kadrlar tayyorlash; innovatsiyalarni yaratish rag'batlantirish; innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash);

- institutsional omillar (davlat dasturlari, qonun va qarorlar ishlab chiqish);

- tashkiliy-boshqaruv omillari (ixtisoslashuv, innovatsion siyosatni takomillashtirish, innovatsion infratuzilma unsurlarini rivojlantirish).

Endogen omillarning ta'siri agrar sektor korxonalarining o'z innovatsion salohiyatidan foydalanish va rivojlantirish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Institutsional yondashuv nuqtai nazaridan innovatsion salohiyat deganda, "innovatsiyalarni tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy rag'batlantirish tizimi, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari, kichik va o'rta biznesning mintaqaviy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish uchun innovatsion salohiyati tushuniladi"<sup>1</sup>.

N. Muxitdinov innovatsion salohiyatga "innovatsion jarayon ishtirokchisining ishtirokchining rolini aks ettiruvchi qismida uni amalga oshirish uchun resurslar va tashkiliy mexanizmni (faoliyat texnologiyasi va tashkiliy tuzilmasi) safarbar qilish qobiliyati, imkoniyati va tayyorligi" sifatida ta'rif bergan.

A. Burxanov fikricha, "qishloq xo'jaligi innovatsion salohiyati – jamiyatning barcha sohalarida innovatsiyalarni yaratish, tatbiq etish va ulardan foydalanish qobiliyatlari yig'indisi bo'lib, inson kapitali, moddiy-texnik resurslar va axborot infratuzilmasini o'z ichiga oladi. Bu tarkibiy qismlar innovatsion jarayonlarning samarali ishlashini va yangi iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik qiymat yaratishni ta'minlaydi".

A. Abduvohidov fikricha, "innovatsion salohiyat ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni boshqarishni tashkil etish va uning tarkibi, ilmiy-tadqiqot markazlari orasidagi ixtisoslashuv darajasi, ilmiy-texnik axborotning tarqatilishi tizimi ishlash kengligiga uzviy bog'liq tushunchadir"

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz iqtisodiyotning agrar sektorida innovatsion faoliyatning quyidagi endogen omillarini aniqlaymiz:

- biologik omillar (chorva va parrandalarning genetik salohiyatini yaxshilash; to'yimli ozuqa bilan ta'minlash);

- ekologik omillar (atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish, shu jumladan chiqindilarni yo'q qilish; ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash);

- texnik va texnologik omillar (energiya va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirish; mashina-traktor parki va ilmiy-tadqiqotlarda foydalaniladigan uskunalar holati);

- axborot omillari (axborot texnologiyalarining qo'llanilishi); - xodimlar malakasi darajasi;

- iqtisodiyotning agrar sektorida innovatsiyalarni qabul qilish layoqatini belgilovchi innovatsion madaniyat darajasi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotning agrar sektori murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim – ko'p funksiyali xususiyatga ega bo'lgan qishloq xo'jaligiga asoslangan ijtimoiy-eko-biotexnologik kompleks sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlik nafaqat iqtisodiy salohiyat, balki kompleks texnologiyalarga asoslangan texnologik salohiyat bilan ham belgilanadi. Iqtisodiyotning agrar sektorida kompleks texnologiyalardan (resurs tejovchi texnologiyalar, aniq dehqonchilik texnologiyalari, agronotexnologiyalar vaboshqaturlari) foydalanish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishining kalitidir. Shuning uchun iqtisodiyotning agrar sektorida innovatsion faoliyatni boshqarishni o'rganish tizimli kompleks yondashuvga asoslanishi kerak.

Iqtisodiyotning agrar sektoridagi innovatsiyalar deganda iqtisodiyotning agrar sektorida innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirishga qaratilgan agrar ishlab chiqarishning ko'p funksional tabiati va xususiyatlari bilan belgilanadigan murakkab dinamik jarayon tushunilishi kerak. Iqtisodiyot agrar sektorining tarmoq xususiyatlari innovatsiyalarni o'zlashtirish va unda innovatsion faoliyatni amalga oshirishning o'ziga xos jihatlari belgilab beradi.

<sup>1</sup> Zaynutdinov, Sh. N. "Innovatsion salohiyatni rivojlantirish strategiyasi". Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnal 1 (2011).

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Van Huylenbroeck, Guido, et al. "Multifunctionality of agriculture: a review of definitions, evidence and instruments." *Living reviews in landscape research* 1.3 (2007): 1-43.
2. Bastan, Mahdi, et al. "Sustainable development of agriculture: a system dynamics model." *Kybernetes* 47.1 (2018): 142-162.
3. Савкин, В. И., В. Н. Масалов, and Н. А. Березина. «Тенденции развития, регулирование и поддержка органического производства в аграрном секторе экономики России.» *Вестник аграрной науки* 2 (101) (2023): 1088-1095.
4. Matrasulov, B. E. "Qisloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish tizimini shakllantirishning asosiy tendentsiyalari." *Ekonomi va sotsium* 1 (116) (2024): 1088-1095.
5. Burkhanov, Alisher. «Сущность и особенности новых экономических отношений в сельском хозяйстве.» *Economics and Innovative Technologies* 11.2 (2023): 166-179.
6. Muxitdinov, X. T. "Innovatsion salohiyat shakllantirilishi va rivojlanishini boshqarishga institutsional yondoshuv." *Ekonomi i finansy (O'zbekiston)* 2 (2012): 2-6.
7. Burxanov, Alisher, and Алишер Бурханов. "Qishloq Xo'jaligida Investitsion Faoliyatni Rivojlantirish Yo'nalishlari." *Economic Development and Analysis*, vol. 3, no. 10, 31 Oct. 2025, pp. 49-63, doi:10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss10-pp49-63.
8. Абдувахидов, А. А. "Аграр секторда инновацион тадбиркорликни ривожлантиришнинг йўллари." *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali* 2.10 (2022): 9-1.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 4

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---